

**BOLALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY
MUSIQANING O'RNI VA AHAMIYATI.**

*Qashqadaryo viloyati
Yakkabog' tumani
18-sod BMSM o'qituvchisi
Razzoqova E'zoza O'ktam qizi
Tel:+998975562047*

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda o'zbek milliy musiqasi yordamida bolalarni ruhiyatini to'g'ri tarbiyash uchun bugungi kunda milliy madaniyatimizga bo'lgan e'tibor, amalga oshirilayotgan islohotlar, buyuk allomalarimizni musiqa ilmiga qarashlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Ibn Sino "Tib qonuni" asari

THE ROLE AND IMPORTANCE OF NATIONAL MUSIC IN EDUCATING CHILDREN IN A SPIRIT OF PATRIOTISM.

Abstract: This article discusses the current attention to our national culture, the reforms being implemented, and the views of our great scholars on musicology in order to properly educate children's psyche with the help of Uzbek national music.

Keywords: Music, Law on Education, National Personnel Training Program, Ibn Sina's "Canon of Medicine"

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА.

Аннотация: В данной статье мы рассказываем о внимании к нашей национальной культуре, проводимых реформах и взглядах наших великих учёных на музыкальную науку в целях правильного воспитания детей с помощью узбекской национальной музыки.

Ключевые слова: Музыка, Закон об образовании, «Национальная программа подготовки кадров», «Закон медицины» Ибн Сины.

Musiqa-inson hayotining ajralmas qismi bo'lib uning yordamida his tuyg'ular ifodalanadi balki jamiyatning ma'naviy va estetik rivojlanishga hissa qo'shiladi. Bolalar uchun musiqaning estetik did ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli katta.

Ibn Sino ham musiqanining hissiy ta'sir kuchini e'tirof etgan holda uni o'zining meditsina kitoblarida aks yettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir **o'rinda** musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, gudakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Gudakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi-ruhiga tegishlidir.

O'zbekiston Respeblikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-Yengilmas kuch" asarida "Musiqqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" deya ta'kislaganlar.

Demak, bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarini tarbiyalab bulmeydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy tarbiyalash – ularning estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish jarayonidir. Ushbu davr bolalar rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, musiqaning ta'siri orqali ularning dunyoqarashi, emotsional his-tuyg'ulari va kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi.

1997 yil qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"lariga asosan ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichida ham kata o'zgarishlar qilish ehtiyoji tug'ilди. Buning uchun ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar ishlab chiqildi. Musiqali idrok yetishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning, har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok yetishni va musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Musiqqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq bo'lgan edi. Musiqqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi. Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvni natijasida xalq musiqasi shakllanadi. Xalq san'ati manbalariga asoslangan musiqqa hamisha jozibador bo'lib, qalbda turli his-hayajonlar uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor, ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o'zining aniq ko'rinishi bilan bog'liqidir.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni estetik va ma'naviy boy, tarbiyal shaxs sifatida tarbiyalash muhim masaladir. Maktabgacha tarbiya muassasalarida musiqiy tarbiya — bu bir aniq maqsadga

yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdan iboratdir. Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Negaki, bugunki yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi. Maktabgacha ta'lim yoshlарimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni hamda vatanparvarlikni musiqa yordamida uyg'unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Bularning asosiy maqsadlari bir yo'lga, ya'ni estetik rivojlangan, komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazishdir.

Birinchi Prezidentimiz "Bolalarimiz bizdan ko'ra dono, aqli, bilimdon, sog'lom va albatta baxtli bo'lishi kerak" deb ta'kidlashlari beziz emas. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan davlat o'quv dastur hisoblanadi. O'quv dasturining pirovard natijasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga yerishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan va ma'nan yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

Hozirgi kelajak avlodni estetik tarbiyalashda san'at muhim o'rinn tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli estetik tarbiya tarmog'inining ajralmas qismi sanaladi.

Bolalarda kichik yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb yetadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini etarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi.

Musiqa kichik yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok yetishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bolalarning musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb yetish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, musiqaga muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish mumkin. Musiqa mashq'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan

qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg‘ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida musiqiy ta’lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta’limi boshqa fanlar kabi mакtabdan emas, balki maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlanadi va ta’lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo‘lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e’tiborimizni qaratmog‘imiz zarur. Buning uchun “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’kidlab o‘tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa rahbarsi shaxsini, uning ma’naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an’analaramizga amal qilgan holda bo‘lajak musiqa rahbarlarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Albatta, boshlang’ich sinflarda ham musiqa fani kichik yoshdagagi bolalar uchun yeng qiziqarli fanlardan biri sanaladi. “Musiqa madaniyati” o‘quv fanida ham kichik yoshdagagi bolalarni estetik tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilub tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqiy ta’lim-tarbiyaga qo‘yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o‘rin olgan.

Unga ko‘ra bolalarni musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- Musiqiyy-estetik faoliyatni atrof muhit hamda zamon bilan hamohangligi;
- Musiqaning san’at sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- Bolalarning musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta’minlash;
- Bolalarning qobiliyat va imkoniyatlaridan qat’i nazar ularning musiqiy tarbiyalariga qo‘yiladigan majburiyatlar.Dasturda musiqiy tarbiyaning mazmuni va yo‘nalishlari ochib berilgan, bolalarning rivojlanishining dinamikasi begilangan, har xil yoshdagagi guruhlarga minimal talablar qo‘yilgan va aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, musiqa inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning yordamida his-tuyg‘ular ifodalananadi va jamiyatning ma’naviy, estetik rivojlanishiga hissa qo‘shiladi. Bolalarning musiqaviy tarbiyasi ularning estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va musiqaga bo‘lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan Maktabgacha ta’lim bosqichida musiqaviy idrokni shakllantirish, bolalarda emotsiyonal his-tuyg‘ularni rivojlantirish va musiqiy qobiliyatlarni oshirish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Musiqa, san’at va estetik tarbiya orqali bolalarni yaxshilab tarbiyalash, ularning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlash, jamiyatning yuqori ma’naviy qadriyatlarini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Maktabgacna ta’limda musiqiy o‘qitish metodikasi” M.Abdullayev 2024 yil

2. O'zbekiston Respeblikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-Yengilmas kuch" asaridan
3. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqa San'atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends* 2.5 (2024): 58-62.
4. Isomovich, T. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(5), 93-99.
5. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 20.5 (2024): 27-31.
6. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 7.5 (2024): 93-99.
7. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments* 2.5 (2024): 310-316.